MILLIY-MADANIY BIRLIKLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH STRATEGIYALARI (O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARI MISOLIDA)

Dildiora Ilhomjon qizi Nazarova
Mustaqil tadqiqotchi,
“Internation” xalqaro maktabi o‘qituvchisi
Nazarovadildora16@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarining 2024-yilda nashr etilgan inglizcha “Such Is Life” tarjimasida o‘zbek milliy-madaniy birliklarining berilishi tahlil qilinadi. Tahlilda supa, hovli, aka, atlas, beshik, tancha, korpacha, Hoji Buvi, Pasha, mahalla, hashar, sumalak, do‘ppi, tolqon, guzar, usma, moshkichiri, chillak, lanka tepish va jo‘raboshi kabi birliklarning tarjima matnidagi qo‘llanishi hamda tarjimon izohlari ko‘rib chiqiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mazkur birliklar ko‘pincha transliteratsiya/transkripsiya shaklida saqlanib, ingliz tilidagi izohlar orqali ularning predmetlik, etnomadaniy va ijtimoiy mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy-madaniy birlik, badiiy tarjima, o‘zbek madaniyati, realiya, tarjima usuli, transliteratsiya, izoh va tarif.

Kirish qismi: Badiiy tarjimada milliy-madaniy mazmunni saqlash tarjimon oldidagi muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, muayyan xalqning turmush tarzi, uy-joy madaniyati, qarindoshlik munosabatlari, diniy qarashlari, marosimlari, milliy taomlari va an’anaviy o‘yinlarini ifodalovchi birliklar boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobilga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda ularni saqlash, izohlash, funksional jihatdan mos birlik bilan berish yoki bir necha usulni uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Asosiy qism: Asar tarjimasining o‘ziga xos jihati shundaki, milliy-madaniy birliklarning bir qismi inglizcha matnda asl shakliga yaqin holda qoldirilgan va izoh bilan ta’minlangan. Masalan, “supa” birligi “supa” shaklida berilib, izohda uning oila a’zolari va mehmonlar ovqatlanishi hamda suhbatlashishi uchun mo‘ljallangan, yerdan baland qurilgan to‘rtburchak maydon ekani tushuntiriladi. “Hovli” esa o‘zbek uylariga xos yopiq hovli sifatida izohlanadi. Demak, tarjimon bu birliklarni ingliz tilidagi umumiy “yard” yoki “platform” so‘zlariga to‘liq almashtirmay, milliy nomni saqlash va izohlash usulini tanlagan.

Qarindoshlik va ijtimoiy munosabatni bildiruvchi “aka” birliksi ham shu usulda berilgan. Tarjima matnida “Thank you, aka” shakli saqlanib, izohda “aka”ning lug‘aviy jihatdan “Older Brother” ma’nosini bildirishi va ism oxiriga kattalik hamda hurmat belgisi sifatida qo‘shilishi ko‘rsatiladi. Bu holatda birlikning faqat denotativ ma’nosini emas, balki uning ijtimoiy-pragmatik vazifasini ham o‘quvchiga yetkazish maqsad qilingan.

Milliy kiyim va hunarmandchilikka oid “atlas” ham tarjimada saqlangan. Tarjimon izohida atlas Markaziy Osiyoning rang-barang ikat naqshlari bilan mashhur milliy shoyi matosi sifatida tavsiflanadi.[4] “Beshik” va “tancha” birliklari esa o‘zbeklarning an’anaviy bolani parvarish qilish va qishda isitinish madaniyati bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. “Beshik” uchun uning yog‘och beshik ekani va bolani ma’lum yoshgacha unda parvarish qilish xususiyatlari kengroq tushuntirilgan; “tancha” esa polga o‘rnatilgan cho‘g‘ ustidagi, usti ko‘rpa bilan yopiladigan isitish moslamasi sifatida berilgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

“Korpacha” birligi ham tarjimada saqlangan va izoh orqali uning o‘zbek ayollari tomonidan qo‘lda tayyorlanadigan kichik ko‘rpa ekanligi, ikki qatlam mato orasiga paxta solinishi va uning kelin sepining muhim qismlaridan biri hisoblanishi tushuntiriladi. Bu misol tarjimada milliy buyum nomini saqlash bilan birga, uning madaniy funksiyasini ham ochib berish strategiyasi qo‘llanganini ko‘rsatadi.

Diniy-ijtimoiy mazmunni ifodalovchi birliklar orasida “Hoji Buvi” va “Pasha” alohida e’tiborga loyiq. Tarjima izohida “Hoji Buvi” haj qilgan, buviga xos hurmatli ayol obrazini bildiruvchi murojaat sifatida tushuntiriladi; “Pasha” esa ayollarga nisbatan hurmat ifodalovchi murojaat sifatida izohlangan. Shu tariqa tarjimon milliy murojaat shakllarining ortidagi ijtimoiy hurmat munosabatini ingliz o‘quvchisiga ochib beradi.

Mahalla va jamoaviy hayotga oid birliklar ham asarning tarjima matnida faol saqlangan. Masalan, “mahalla” so‘zi o‘z holicha qo‘llanadi; “Dumbirobod” esa Hoshimovning Toshkentdagi mahallasi sifatida izohlanadi. “Hashar” birligi tarjimada saqlanib, mahalla yoki boshqa jamoa tomonidan umumiy hududni ta’mirlash va tozalash kabi jamoaviy ishlarni bajarish uchun belgilangan davr sifatida sharhlanadi.[8] Bu usul “hashar”ning oddiy “community work” ma’nosidan ko‘ra kengroq ijtimoiy mazmunini ko‘rsatishga yordam beradi.

Milliy taom va kiyim nomlarida ham xuddi shunday yondashuv kuzatiladi. “Sumalak” an’anaviy taom sifatida, ayniqsa Navro‘z bilan bog‘liq holda izohlangan; “do‘ppi” o‘zbek erkaklarining an’anaviy bosh kiyimi sifatida, “tolqon” esa maydalangan yong‘oq va boshqa masalliqlardan tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsuloti sifatida tushuntiriladi. Bu birliklarning tarjimada saqlanishi o‘zbek milliy koloritining yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Badiiy matnda milliy-madaniy birliklar faqat predmet nomi sifatida emas, balki ijtimoiy makonni ham yaratadi. Masalan, “guzar” tarjimada qishloq yoki mahalladagi do‘konlar, choyxonalar va xizmat ko‘rsatish joylari joylashgan maydon sifatida izohlanadi. “Usma” va “moshkichiri” kabi birliklar o‘zbek ayollarining kundalik turmushi va ovqatlanish madaniyatini ifodalovchi elementlar sifatida saqlangan. “Usma” qoshga surtiladigan o‘simlikdan tayyorlangan massa, “moshkichiri” esa moshdan tayyorlanadigan taom sifatida izohlangan.

Milliy bolalar o‘yinlari bilan bog‘liq birliklar ham tarjimada izohli shaklda berilgan. “Chillakning o‘yin qoidalari batafsil tushuntirilgan; “Lanka tepish” esa qo‘y terisiga biriktirilgan qo‘rg‘oshinli kichik to‘pni havoga tepib o‘ynaladigan o‘yin sifatida tavsiflangan. “Jo‘raboshi” esa bolalar guruhidagi yetakchi, boshqalarga vazifa taqsimlovchi bola sifatida izohlangan.[12] Bu holat tarjimonning milliy realiyalarni shunchaki transliteratsiya qilmasdan, ularning funksional mazmunini ham ochib berishga intilganini ko‘rsatadi.

Keltirilgan misollar asosida “Dunyoning ishlari”ning inglizcha tarjimasida milliy-madaniy birliklarni berishda bir necha o‘zaro bog‘liq usullarni ajratish mumkin: 1) milliy birlikni asl shakliga yaqin holda saqlash; 2) saqlangan birlikka qisqa lug‘aviy izoh berish; 3) predmet yoki hodisaning funksiyasini tushuntirish; 4) birlikning ijtimoiy-pragmatik mazmunini ochish; 5) ayrim hollarda izohni kengaytirib, xorijiy o‘quvchi uchun madaniy kontekst yaratish. Ushbu usullar bir-biridan mutlaqo ajralgan holda emas, balki ko‘pincha birgalikda qo‘llanadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur nashrda qo‘llangan izohli tarjima usuli alohida ahamiyatga ega. Masalan, “supa”, “hovli”, “aka”, “atlas”, “beshik”, “korpacha”, “hashar”, “guzar” kabi birliklarning nomi saqlanib, ularning mazmuni ingliz tilida izohlangan. Natijada tarjima matni ikki vazifani bajaradi: bir tomondan, o‘zbekcha milliy nom va kolorit saqlanadi; ikkinchi tomondan, mazkur birlikning mazmuni ingliz o‘quvchisiga tushunarli bo‘ladi.

Xulosa qismi: Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Dunyoning ishlari”ning 2024-yilgi inglizcha tarjimasida milliy-madaniy birliklarni berishning asosiy xususiyati ularni asosan saqlash va izohlashga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tayanadi. Tarjimonlar o‘zbek madaniyatiga xos nomlarni inglizcha umumiy ekvivalentlar bilan to‘liq almashtirishdan ko‘ra, milliy birlikning o‘zini matnda qoldirib, uning predmetlik, funksional yoki ijtimoiy mazmunini izoh orqali ochishga intilgan. Bunday yondashuv milliy koloritni saqlash va madaniyatlararo tushunishni ta’minlash o‘rtasidagi muvozanatni yuzaga keltiradi.

Tahlil qilingan birliklar o‘zbek xalqining uy-joy madaniyati, qarindoshlik va hurmat munosabatlari, diniy tasavvurlari, jamoaviy hayoti, milliy kiyim-kechagi, taomlari va bolalar o‘yinlari kabi sohalarni qamrab olishi aniqlandi. Shu sababli “milliy-madaniy birlik” tushunchasi mazkur tezis uchun kengroq tahliliy birlik sifatida qo‘llanishi, mentalitet esa ushbu birliklarning ortidagi qadriyat va dunyoqarash mazmunini izohlashda qo‘shimcha metodologik nuqta sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hashimov U. Dunyoning Ishlari = Such Is Life / U. Hashimov. – Nashville, TN: Muloqot Cultural Engagement Program, 2024. – 266 p. – ISBN 979-8-218-39198-0.
2. Abdullayeva, Marxabo. "DUNYONING ISHLARI INGLIZ TILIDA (Mark Riss tarjimasi tahlili)." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 5.20 (2025): 374-377.
3. Manley R. To the Tashkent Station: Evacuation and Survival in the Soviet Union at War / R. Manley. – Ithaca: Cornell University Press, 2009. – 304 p.
4. Eden J. God Save the USSR: Soviet Muslims and the Second World War / J. Eden. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 320 p.
5. Tasar E. Soviet and Muslim: The Institutionalization of Islam in Central Asia, 1943–1991 / E. Tasar. – New York : Oxford University Press, 2017. – 416 p.
6. Abdullayeva, Marxabo. "Inglizchadan o ‘zbekchaga nasriy tarjimaning milliy-madaniy xususiyatlari (XX asr oxiri XXI asr boshlarida ingliz tilidan bevosita tarjimalar misolida). TADQIQOTLAR. UZ, 50 (5), 80-84." 2024.
7. Abdullayeva, M. NASRIY TARJIMANING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI (XX asr oxiri XXI asr boshlarida ingliz tilidan bevosita tarjimalar misolida). Tadbirkorlik va pedagogika Ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN, 2181-2659.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.